SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11

2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I11Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 11 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*
ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO‘PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ........ 11-14

*Тағбаев Амирбек Аширбаевич*
Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ........ 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*
ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ........ 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ........ 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*
НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ........ 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимахаматович*
ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ........ 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

**8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*
ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 63-70

*Shao Junling*
ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KENG KO‘LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*
BANK XIZMATLARIGA BO‘LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO‘LLARI ........ 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*
МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ........ 90-96

*Yakubova Samira*
LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING ........ 97-102

*Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich*
OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI ........ 103-109

*Egamberdiyeva Salima Rayimovna*
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 110-118

*Xolmamatov Diyor Haqberdievich*
SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH ........ 119-127

*Gafurova Dilshoda*
INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS ........ 128-132

*Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich*
TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH ........ 133-139

*Raxmonov Mirvoxid Rajabovich*
NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI ........ 140-149

*Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li*
DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI ........ 150-159

*Aziza Umarova*
AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 160-167

*Абдуллаев Бунёд Ўткирович*
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 168-178

*Matjonov Bekjon Ravshonbekovich*
SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN ........ 179-185

*Алиматова Наргис Абдухалиловна*
КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ ........ 186-197

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna*
F. NITSSHE "HAYOT FALSAFASI" KONSEPSIYASI IJTIMOIY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI ........ 198-204

*Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich*
INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOIY TABIATI ........ 205-211

*Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна*
РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯУ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 212-218

*Urinboyev Dilmurod Tura oʻgʻli*
HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI...... 219-225

*Яздонов Зикирилло Шукуриллоевич*
АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ ........ 226-231

*Nabiyev Maxsud Abdumannonovich*
IQTISODIY MADANIYATNINGMAZMUNIVAMOHIYATI ........ 232-238

*Haydaraliyev Shuhratjon*
MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 239-243

*Хамраев Сардорбек Шарафутдинович*
ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ.. 244-250

*Xashimov Sheraxon Joʻraxonovich*
OʻZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN OʻRNI ........ 251-260

*Хатамова Рашида Закиржановна*
ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ........ 261-266

*Патиев Холдор Икромович*
ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ ........ 267-275

*Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna*
FARGʻONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOIY JARAYONLARDA NAMOYON BOʻLISH XUSUSIYATLARI ........ 276-280

*Raximova Rayxon Abdurasulovna*
GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING OʻZARO ALOQADORLIGI ........ 281-287

*Raxmankulov Farxod Raximkulovich*
MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOIY MASʼULIYAT TUYGʻUSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 288-292

*Shirinov Anvar Qanoatovich*
MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI ........ 293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*
"OSOR AL-BOQIYA" – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI ..................300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*
IJTIMOIY DAVLATDA IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASH VA IJTIMOIY INSTITUTLARNING MAQSADI ..................305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*
MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI ..................312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*
DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI ..................321-326

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ауезмуратова Нуржамал Дастенбаевна*
КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..................327-332

*Olga Filippova*
ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ..................333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*
INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O'ZBEK TILI O'ZLASHISH MASALALARI ..................346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*
LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ..................352-357

*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna, Ibragimova So'g'diyona Ikrom qizi*
INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING QO'LLANILISHI ..................358-362

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Тўраев Сардор Абдихаким ўғли*
ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ..................363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*
ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ..................372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*
ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА ..................378-385

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*
MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIVERGENT TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ..................386-390

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*
O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH ........ 391-400

*Uralova Muxabbat Sanjar qizi*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH........ 401-406

*Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich*
METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES ........ 407-411

*Abdusamatov Alisher Sobirovich*
TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV ........ 412-417

*Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna*
TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O`RNI ........ 418-422

*Babayeva Maxfuza Abduvaitovna*
TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI ........ 423-429

*Nazarova Zarrina Allaberdiyevna*
MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRIRSH USULLARI........ 430-435

*Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna*
O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI ........ 436-442

*Умаров Азиз Авазович*
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ........ 443-447

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)........ 448-453

*Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna*
DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQARISH METODIKASI ........ 454-461

*Komilov Nodirbek Bokijonovich*
THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS ........ 462-466

*Sapieva Nargiza Mamayusufovna*
IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY–PEDAGOGIK QO'LLAB–QUVVATLASH ........ 467-478

*Norqobilova Rayxona Davlatovna*
XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI ........ 479-484

*Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich*
SINFDAN TASHQARI MASHGʻULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA Oʻ QITISH USULLARINI TANLASH ........................................ 485-492

*Irgasheva Umida Raimjanovna*
TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 493-498

*Turayeva Lolaxon Yuldashevna*
ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA Oʻ RGANISH VA NAMOYISH ETISH ........................................ 499-505

*Kushakova Gulnora Egamkulovna*
TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ........................................ 506-510

*Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna*
OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI ........................................ 511-518

*Xasanova Gulnoza Raxatjanovna*
KREDIT-MODULLI TA’LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI ........................................ 519-525

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 11 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Kushakova Gulnora Egamkulovna**
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika fanlari boʻyicha PhD, dotsent
Email: gulnora1123@gmail.com

## TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talaba yoshlarimizning oila haqida savodxonlik darajasi nechogʻlik muhim ekanligi, oila qurishning oʻz vaqtlari va jamiyatda oilaningoʻrni, shu bilan birga, er-xotinlarning oʻz huquq va majburyatlarini bilishi va hozirgi kunda yoshlar oʻrtasidagi ajrimlarning oldini olish borasida shaxsiy takliflar berib oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:** huquq, oila, nikoh, huquqiy savodxonlik, oilaviy etuklik, jinsiy etuklik, oʻsmir va oʻspirinlik davri.

**Kushakova Gulnora Egamkulovna**
Jizzakh State Pedagogical University,
PhD in Pedagogical Sciences, associate professor

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE

**Abstract.** In this article, the importance of the level of literacy of our student youth about the family, the time to start a family and the place of the family in society, at the same time, the knowledge of the rights and obligations of married couples, and the prevention of divorce between young people, is discussed in this article. proposals have been made.

**Key words:** law, family, marriage, legal literacy, family maturity, sexual maturity, adolescence and adolescence.

**Кушакова Гулнора Егамкуловна**
Джизакский государственный педагогический университет,
Кандидат педагогических наук, доцент

## ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

**Аннотация.** в данной статье рассматривается значение уровня грамотности нашей студенческой молодежи о семье, времени создания семьи и месте семьи в обществе, а также знания о правах и обязанностях супружеских пар, и предотвращении разводов между молодыми людьми, обсуждаются в данной статье.

**Ключевые слова:** Право, семья, брак, правовая грамотность, семейная зрелость, половая зрелость, подростковый и подростковый возраст.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N70

**Kirish.** Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bogʻliq tushuncha boʻlib, jamiyatning oʻzi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa oʻz oʻrnida jamiyat bagʻrida vujudga keladi, rivojlanadi. Jamiyatda oilaning oʻz vazifalari mavjud boʻlib uning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, oʻziga xos xususiyatga egadir.

Har bir xalq yaxlit dunyoninig bir boʻlagidir, inson-insonga, xalqlar-xalqlarga oʻxshamaydi, bir-birini aynan takrorlamaydi, Har bir millat va elatning oʻziga xos jihatlari mavjud boʻlib, har bir xalqning oʻz ma'naviyati, milliy qadriyatlari va boy tarixiga egadir. Milliy qadriyatlar, har bir millatning oʻziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha boʻlib, oʻsha millat bosib oʻtgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qoʻshgan hissasini, ulushini ifodalaydi.

Huddi shu milliy oʻziga xoslik, millat madaniyatida, urf-odatlarida, rasm – rusumlarida, tarixiy xotirasida, tilida, dinida, yashash va fikrlash tarzida oʻz ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma’naviy madaniyat ifodasi boʻlib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qoʻshgan munosib hissasining hosilasidir. Ma'lumki, azaldan sharq mamlakat xalqlari ongida oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasida oilaning beqiyos roʻli asrlar davomida shakllanib kelgan. Oilaga nisbatan millatning urf odat va an'analarini saqlash va davom etturuvchi dargoh sifatida qaralgan. Shunga koʻra oilani mustaxkamlashga astoydil kirishgan va oʻz naslini pok saqlashga, ta’lim-tarbiya ishlariga jiddiy e’tibor qaratib kelingan.

Oiladagi ma’naviy muhit, axloq-odob masalalari katta ahamiyatga ega boʻlib, inson oʻz millati an’analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishadi. Xalqimizning axloq, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati, yaxshilik bilan yomonlik oʻrtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolatga erishish yoʻlini yoritib boradi. Har bir inson bir olam boʻlgani kabi uning axloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning ichki va tashqi olamini oʻrganish, bilish, taxlil qilish gʻoyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bogʻliq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi fazilatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu-diyonat, hayoyuiffat, imon-e’tiqod kabilar mujassam boʻladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi-beburd, axloqsiz kimsalar fe’lida koʻrinadi.

Har bir xalqning nufuzi va obroʻ-shuhrati kishilarning axloq-odobi, yaxshi xislat fazilatlari bilan belgilanadi. Shaxs tarbiyasi haqida toʻxtalinar ekan, avvalo tarbiya oila oʻchogʻidan boshlanadi, shuning uchun bugungi kunda oila qurish arafasida turgan talaba yoshlarimizga oilaviy hayotga oʻz munosabatlarini adekvat tasavvurlarini shakllantirish, ularga Islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni karim va hadisi shariflarda oila muqaddasligi toʻgʻrisidagi chaqiruvlarga islom manbalarida oilani mustahkamlashga qanchalik chaqirilgan boʻlsa, uni buzilishidan shunchalik qaytarilganligini uqdirilib borishilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilish lozim.

Bugungi kunda talaba yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik va pisixologik xususiyatlarini oʻrgatib borish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash juda muhimdir.

Chunki bola shaxsini shakllantirish uning tugʻilishidan boshlanadi. Shuning uchun ularni oila muqaddas ekanligi bola tarbiyasida ota-onaning oʻrni va vazifalari haqidagi maʼlumotlar bilan boyitib borish zarur. Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim olayotgan oila qurish yoshidagi talabalarga oilaviy munosabatlar harakteri, ota-onaning namunasi, ulardagi umumtaʼlim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishi ahamiyat kasb etadi.[3]

Mamlakatimizda oilaga katta eʼtibor berilib kelmoqda, chunki oila davlatning, jamiyatning engkichik boʻlagi hisoblanadi, shunday ekan, yoshlarimizni oilaga tayyorlash, ularga oila muqaddas dargoh ekanini tushuntirishimiz kerak.

Oʻzbekiston Resbuplikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyat hayotidagi roli haqida: ”Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini avlodlarning davomiyligini taʼminlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar etishishiga bevosita taʼsir koʻrsatadigan tarbiya oʻchogʻi ekanini tan olishimiz darkor”deb aytib oʻtadilar. Darhaqiqat, inson ilk taʼlim-tarbiyani oiladan oladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Yoshlarning olgan tarbiyasi, bilimi, albatta, kelajakdagi oʻrnini, jamiyatda rolini, oʻz mavqeyini topishga yordam beradi. Shuning uchun oilada hamma oʻz rolini bilishi, turli xil kelishmovchiliklar sababli oilaning koʻzgusi darzketishi bu juda katta nadomat hisoblanishini yoshlarimizga etkazishimiz muhimdir.Oila va nikoh boʻyicha V.Karimova Z.Freyd va A.Adlerning gʻoyalarini maʼqullagan holda shunday deydi:”Oila qurayotgan yosh-kelin kuyovlar oʻzlari anglamagan ravishda oʻzlari tarbiya topgan oilaning modelini yangi oilaga tadbiq eta boshlaydilar”. [3,5]

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning oʻziga xosligi va ahamiyatini taxlil qilishga yordam beradi. Buning uchun ota – onalarning oʻzida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabati oʻzgarmogʻi lozim. Milliy qadriyatlar va milliy oʻzlikni anglashda, xalqning maʼnaviy merosidan, ota-bobolarimizning pand-nasihatlari, tajribalari asosida eng yaxshi va olijanob anʼanalar ruhida tarbiyalash, ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar gʻalviridan oʻtib, saralanib bizgacha etib kelgan oʻgitlarini ongiga, dunyoqarashi va shuuriga sindirib borilmogʻi darkor. Shu bilan birga bolalarni xalq anʼanalariga oʻrgatishi ota-onalarining majburiy vazifasidir.

Bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega boʻlib, Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilaridir. Bolani oilada tarbiyalash murakab ijtimoiy-pedagogik jarayonidir. Oiladagi sharoit va muhit bola shaxsi shakilanishiga taʼsir koʻsatadi. Ota va ona oʻz bolasini ardoqlaydilar, erkalaydilar tashvish va qiyinchiliklardan asraydil. Ota-onalarning shaxsiy ibratlari-bolaning tarbiyasiga taʼsir koʻrsatish muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi va havas qilishga asoslangan. Bilim va tajribalarga ega boʻlmay bola kattalar qilganini takrorlaydi ularning xarakterlariga taʼqlid qiladilar. Baʼzan bolaning oilada olgan tajribasi atrofdagi odamlarga nisbatan yagona oʻlchov belgisi boʻlib qolgan. Oila tarbiyasida toʻgʻri yoki egri oʻsishga bogʻbon mehnati va mahoratiga bogʻliq. Egri oʻsayotgan niholning qaddini rostlab qoʻymasa, u notoʻgʻri oʻsadi. Yangi tugʻilgan goʻdak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati oʻrtasida qandaydir oʻxshashlik mavjud. Bundan koʻrinib turibdiki, axloq-odobning normalari – kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, rostgoʻylik,

mehnatsevarlik kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliqdir. [4,2]

**Muhokama.** Yoshlarimizni oila qurishlaridanoldin ular oʻzlariga savol berishlari lozim. Men oʻzi oilaga tayyormanmi? Yigitlarimiz: Men kelajakdaota mas’ulyatini, erlik mas’ulyatini, bajara olamanmi ularga ma’naviy va madaniy mehr bera olamanmi? Qizlarimiz esa: men onalik vazifasini, xotinlik, kelinlik vazifasini qay darajada, qanday bajaraman? Turmush oʻrtogʻimni yomon va yaxshi kunlarida yonida tura olamanmi?

U bilan birga suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, oila qiyinchiliklariga dosh bera olamanmi? deb oʻzlarini oilaga tayyorlashi kerak. Bilamizki, inson oʻzini tarbiyalay olsa uning kelajagi porloq va yorugʻ boʻladi.Oila qurishdanya’ni nikohlanishdanoldin “Yetti oʻlchlab bir kes” degan maqolga amal qilib bir qarorga kelishlari talab qilinadi. Boshidan oʻylab qaror qilmas ekan, kelajagi noxush vaziyatlarga uchrab qolishi mumkun. Xalqimiz bekorga “Koʻz ochib koʻrganim koʻz qorachigʻim, keyingi koʻrganim loy-u balchigʻim” deb aytishmagan.Shu oʻrinda Kaykuvus “Qobusnoma” asarida oʻgʻliga shunday nasihat qiladi, uylanmagan oʻgʻlingniturmushga chiqmagan qizga uylantir. Agar uylanmagan oʻgʻlingni turmushga chiqgan qizga uylantirsang, yoki uylangan oʻgʻlingni turmushga chiqmagan qizga uylantirsang, yoshlar bir-birlaridan birinchi turmush oʻrtogʻini izlay boshlaydi. U payda ular birinchi turmush oʻrtogʻini salbiy tarafini emas, aksincha, ijobiy taraflarini izlay va ta’kidlay boshlaydi. Shunday ekan, yoshlarimiz oʻzlariga juft tanlar ekan, oʻzlariga mos va xos turmush oʻrtoq tanlashlari lozimdir.Bundan 100 yillar oldin tengdoshlarimiz 15-16 yoshda oilaviy hayotga etuklik talablari boʻlmish jinsiy etuklikka, balogʻatga etar ekan ular aksariyat holarda shu yoshga kelib oʻsha davrlar uchun xos va lozim boʻlgan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar boʻlganlar (chunki u vaqtlar bolalarni odatda 13-14 yoshdan shogirdlikka berishgan) ulardan maxsus yoki oliy ma’lumot talab qilinmagan. 3-4 yil ustoz koʻrgan shogird 16-17 yoshida oʻzi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, oʻz ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. [4,6]

Mobodo shu vaqtda oila quradigan boʻlsa, oʻz hunari orqali oila a’zolarini iqtisodiy jihatdan ta’minlay olishi mumkin boʻlgan.Bugungi yoshlarimiz 12-13 yoshda balogʻatga etishadilar va aksariyat hollarda oradan 7-8 yil oʻtib qizlarimiz 18-19 yoshda yigitlarimiz 21-22 yoshda oila quradilar.Bu vaqtda esa ular na iqsodiy jihatdan,na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor boʻladi.Bunday hollarda shubhasiz avvalgi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradilar.Oʻzbekiston Respublikasining oila kodeksida koʻrsatilganidek, “Yigit yoshi 18 yosh, qiz yoshi17 yoshga toʻlganda ixtiyoriy ravishda oila qurishlari mumkin “Ammo, bugungi kunning ma’naviy, iqsodiy-ijtimoiy talablari shu yoshda oila qurganlarni toʻla qilib, bir qancha ijtimoiy iqsodiy va ma’naviy muommolarni keltirib chiqaradi.Shunday ekan,qizlarimiz 20-22 yoshda, yigitlarimiz 25-27 yoshda, oila mas’ulyatini elkalariga olib oilaga tayyor boʻlishmoqda. Buyoshda,albatta,yoshlarimiz oila haqida ma’lumotga ega boʻlishadi va aksariyat yoshlarimiz talaba yoki oʻz mutaxasisligi boʻyicha ishlayotgan boʻlishadi.Yoshlarimiz bugungi kun statistik ma’lumotlarga qaraganda, bir-birlarini tushunmasligida, xarakteri mos kelmasligidan ajrimlar soni ortib bormoqda. Turmush qurgan yosh oilani ikkiga boʻlib ma’lumotlar yigʻildi. Birinchi guruh yoshlari sevib-sevilib turmush qurgan, ikkinchi turdagi yoshlarimiz esa ota-onasi yoki qavm-qarindoshlari orqali tanishib bir-birlariga ma’qul tushib turmush qurgan yoshlar.Bugungi kunda mamlakatimizda 30 yoshgacha boʻlgan yosh oilalar

soni 2 886 296 tani, birgina joriy yilningoktyabr oyi yakuniga koʻra esa yangi rasmiylashtirilgan nikohlar soni 214 923 tani tashkil etmoqda. Lekin, 2022-yilning yanvar-oktyabr oylarida oilaga qurganiga hali 5 yil toʻlmagan oilalar oʻrtasigi ajrimlar 17 628 tani tashkil etmoqda.Birinchi turdagi yoshlarimizda ajrimlar koʻproq chiqmoqda, chunki yigit va qiz uchrashibsevishadilar, lekin, oʻsha vaqt davomida oʻzlarini faqat yaxshi tomonlarini, yaxshi xarakterini koʻrsatadilar. [5,2]

**Natijalar.** Toʻydan keyin esa yangicha xurmacha qiliqlarini koʻrsata boshlaydilar. Qarabsizki, oʻrtaga sovuqchilik, dil qoraliklar yogʻila boshlaydi. Soʻngra bir-birimizga toʻgʻri kelmadik, biz yashay olmaymiz deb hayotga engil qarashib ajrimlar boʻlmoqda.Ikkinchi turdagi yoshlarimiz esa bir-birlarini toʻydan keyin oʻrganishib,moslashib,turmush shunaqa boʻlarkanda deb hayotga koʻnib ketishmoqda .Yoshlarimizning oʻrtasiga yosh ham nihoyatda ahamiyatlidir, yaʼni er-xotinnig orasi teng yosh boʻlsa ayol kishi gapini oʻtkazishga harakat qiladi,aksincha 10-12 yosh boʻlsa dunyoqarashlari farqi yuqori darajada boʻlib qoladi. Er-xotinlarning yoshlarining farqi 1 yoshdan 8 yoshgacha norma yosh hisoblanadi.Shunday qilib, oila oʻrtasida sodir boʻladigan murakkab va serqirra munosabatlar koʻplab olimlar, shu jumladan, oʻzbekiston olimlar (M.Davletshin, Gʻ.Shoumarov, E.Gʻoziev, B.Qodirov,X.Karimov, N.Sogʻinov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov, V.Karimova va boshqalar) tomonidan oʻrganildi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, uqqan va oʻqigan, oq va qora, yaxshi va yomonni farqiga boradigan, hayot zahmatlaridan xabardor sabrli, itoatli yigit va qizlarimiz mukammal va baxtli oila yarata olishadilar.Shu bilan birga muhabbat qoʻyishlarida tashqi goʻzalikka emas, balki ichki goʻzaligiga,suratiga emas siyratini sevishi xulq-atvorini boricha qabul qilib yashashlari darkor .Xalqimizda bir hikmat bor: "Ayol har doim erkak kishidan bir pogʻona pastda boʻladi, chuki ayollar erkaklarning qovurgʻalaridan yaratilgan. Erkaklar esa ayol kishini toʻgʻrilashga urinmang, ayol erkakning qiyshiq qovurgʻasidan yaralgan ekan, toʻgʻrlayman desangiz sindirib yuborishingiz mumkun. Aksincha, siz ayyolarga mehr bering va tarbiya qiling" deyishadi, shundagina siz oilaning farovonligini kafolatlay olasiz.

## Адабиётлар / Литература / References


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev 2017 yil 15 iyunda "Ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash- davr talabi" mavzusidagi anjumanda soʻzlagan nutqi. – http://uza. uz/oz/politics/vatanimiz taqdiri va kelajagi yoʻlida yanada hamjihat boʻlib- 15.06.2017 (Elektron manba. 2018 yil 9avgustda murojaat etilgan).
2. 2018 yil 26-mart kuni. 2-fevraldagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish boʻyicha maxsus oʻquv kurslari tashkil etish toʻgʻrisida " 230-son qarori. http//lex.uz/docs/3598026((Elektron manba. 2018 yil 9avgustda murojaat etilgan ).
3. Musurmonova O. Maʼnaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-Toshkent: Oʻqituvchi, 1996-192b/ 4. Mahkamov S.Islom dini va oila tarbiyasi.Masʼul muharrir Abdulaziz Mansur – (Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashr., 2000.- 32b.)
4. Umarov B.M. "Psixalogiya" "Voris-nashriyot " Toshkent-2012 248-249 b
5. Alqarov R.Sh. R.Mamatqulova, H.D.Norqulov. "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi", "Toshkent -2009" , 173-174-b
6. Karimova V.M."Oila Psixologiyasi" Toshkent. 2007. 78b

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I11Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).